ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2025/ № 2.1-2

Termiz – 2025

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro‘yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko‘chirma va ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko‘chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.05.2025
Qog‘oz bichimi: 70x85
Bosma tabog‘i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog‘ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko‘chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
www.philologicalresearch.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisod fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY’ATI:
Bekpo‘lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o‘rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas’ul muharrir)
O‘ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Normat Yo‘ldoshev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Asqar Eshmo‘minov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O‘zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Zaynura Qodirova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Dilrabo Ergasheva, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To‘raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.05.2025
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
www.philologicalresearch.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ, доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Зайнура Кадирова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Дильрабо Эргашева, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.05.2025
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
www.philologicalresearch.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV, doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, PhD (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, PhD (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, PhD (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, PhD (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, PhD (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, PhD (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, PhD (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, PhD (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, PhD (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, PhD (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, PhD (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, PhD (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, PhD (Uzbekistan)
Zaynura Kadirova, PhD (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, PhD (Uzbekistan)
Dilrabo Ergashova, PhD (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

KURBANOVA MUHABBAT MATYAKUBOVNA,
SARBAROVA DILNOZA NOSIRJON QIZI
Deyksis va anafora tushunchalari: o‘xshash va farqliliklar 7

JUMANYAZOVA MUHABBAT XUSINOVNA
Xorazm vohasi folklori tilidagi muarrablar 10

KURBANAZAROVA NARGIS SHODIYEVNA
Qo‘ng‘irot etnonimining fonetik-fonologik
variantlarida semantik tafovut 13

BABAXANOVA DILAROM AXMATXANOVNA
O‘zbek adabiy tilida paremiyalarga xos xususiyatlar 18

O‘RAZOVA IQBOL ABDIKARIMOVNA
«Ko‘ngil» leksemasi va uning «tafakkur»
sememasidan shakllangan frazemalar tahlili 22

XOLOVA MUYASSAR ABDULHAKIMOVNA,
BOZOROVA ELINOR,
XOLIQULOVA ZARNIGOR
Alisher Navoiy korpusi tadqiqiga doir ayrim qaydlar 26

SAATOVA SURAYYO ISMAILOVNA
Individuallik – yozuvchi lisoniy shaxsini belgilashda muhim ko‘rsatkich
(J.Jovliyev asarlari misolida) 29

MUKUMOV MAKHMUD KHUDAYBERDIEVICH
Discourse and the formation of scientific meaning 32

IBODULLAYEVA KUNDUZ RUSTAM QIZI
Ilmiy diskursda janrlar masalasi va uning xususiyatlari 36

YADIGAROVA SITORA BAXRAMOVNA
Ingliz va o‘zbek tillaridagi kiyim va mato komponentli frazeologik
billiklarning konnotativ va denotativ ma’nolari 41

МИРЗАЕВА ШАХЛО РИЗАЕВНА,
РУЗИЕВА МУШТАРИ ХУСНИДДИН КИЗИ
Отличие синонимов от многозначных
слов в русском и узбкском языках 43

ХАЙДАРОВА ГУЛБАХОР ЮЛДАШЕВНА
Трансформация глагольной основы в прилагательное
с помощью суффиксов 47

ВАПАЕВА АНАХОН НАСУРИЛЛАЕВНА
Компонентный анализ активно употребляемых
единиц современной русской и узбекской лексики 51

ЙУЛДОШЕВА САОДАТЖОН ШУХРАТ КИЗИ
Формы обращения и речевого этикета в русскоязычных
и узбекоязычных онлайн-коммуникациях 55

МУНДАРИЖА

SOBIROVA GULSHANA FAXRIDDINOVNA
O‘zbek tili haqoratli so‘zlar izohli lug‘atini tuzish tamoyillari 61

YULBARSOV OCHILBEK OBIDJON O‘G‘LI
Neologizmlarning korpus tahlili yordamida tadqiq etilishi va
ularning konkordanslari asosida ma’lumotlar
bazasini shakllantirish tamoyillari 66

OQILA ABDULLAYEVA XOLMO‘MINOVNA
Turkiy tilshunoslikda dependency parsingga oid tadqiqotlar 72

HILOLAXON SHUHRATXON QIZI PO‘LATXONOVA
Neurolinguistic analysis of public speeches
on persuasive strategies in political rhetoric..... 78

TO‘YCHIYEVA ZULAYXO HAMROQO‘LOVNA
O‘zbek antroponimikasida ism tanlash masalalari..... 81

ADABIYOTSHUNOSLIK

УМУРЗОҚОВ БАҲРИДДИН САФАРОВИЧ
Алий Сафий Ҳиравий қаламига мансуб янги топилмалар 84

XALILOVA SHOHISTA MUHAMMADI QIZI
Rey Bredberining asarlari va o‘zbek adabiyotida
anti-utopik mavzularning qiyosiy tahlili 89

ABDIVALIYEV OBITJON ODILJONOVICH
Abdulla Qahhorning «Boshsiz odam»
hikoyasida huquqsiz ayol timsoli 92

QARAQULOV AZIZBEK
Inson va tabiat muammosining o‘rganilishi..... 94

TA’LIM

SHAMSIDDINOVA DILAFUZ FAXRIDDINOVA
The efficacy of contextual learning through extensive reading
and listening in enhancing esl speaking vocabulary 99

некоторые муаррабы, встречающиеся в фольклорном языке Хорезмского оазиса, в частности, в языке эпосов. Подчеркивается, что эти метафоры выражают языковое и культурное содержание.

Resume. This article studies the muarrabs in the folklore language of the Khorezm oasis. It shows the specific features of muarrabs - essentially Arabicized words, and analyzes some muarrabs found in the folklore language of the Khorezm oasis, in particular, in the language of epics. It is emphasized that these muarrabs express linguistic and cultural content.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2025; 3-4
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

QO‘NG‘IROT ETNONIMINING FONETIK-FONOLOGIK VARIANTLARIDA SEMANTIK TAFOVUT

Kurbanazarova Nargis Shodiyevna,
Termiz davlat universiteti o‘zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Etnonimlar etimologiyasini aniqlashda fonetik jihat muhim hisoblanadi. Chunki bir tovush farqlanishining o‘zi ham so‘z ma’nosini o‘zgartirishi, yangilashi mumkin. Fikrlarimizni misollar tahlili asosida davom ettiramiz.

Qo‘ng‘irotlar tarkibidagi *vaxtamg‘ali* urug‘ining *uyuvli* tarmog‘i nomlanishi jihatidan bir qancha variantlarga ega. Fonetik tafovutlar bilan ifodalangan shakllarida mazkur urug‘ quyidagi ko‘rinishlarga ega.

Toponimist olim S.Qorayev Toshkent viloyatining Bekobod tumanida *uyuvli* qishlog‘i borligini qayd etar ekan, mazkur toponim o‘zbeklarning *do‘rmon, qo‘ng‘irot* qabilalari tarkibidagi ***uyuvli*** urug‘i asosida shakllanganligini qayd etadi[1].

Aynan shu urug‘ Surxondaryo viloyati hududida ham uchraydi. Xususan, Kampirtepa qishlog‘ida, asosan, vaxtamg‘ali qo‘ng‘irotning *uyuvli* urug‘iga mansub kishilar yashaydi. O‘zbeklarning boshqa urug‘lariga mansub oilalar yo‘q darajada. O‘z o‘rnida vaxtamg‘ali tarmog‘i *bug‘a jili, oboxli, irg‘oqli, qaychili, qozoyoqli, qoraqo‘ng‘irot,* ***uyuvli (uyikli)****, chanchiqli, boymoqli, achamayli, taroqli, uchchuli* kabi o‘n olti uruqqa bo‘linadi. Uyuvli son jihatdan vaxtamg‘alining eng ko‘pi hisoblangan va boshqa urug‘larga nisbatan ustunliklarga ega bo‘lgan. Uyuvlilar ham yana *xirri, jaltir, orqasido‘ng, oqto‘nli, avlochagir, tuvma (tug‘ma), o‘tap, konchi* kabi ichki dahalarga ajraladi. Uyuvli urug‘ining ustunligini ko‘rsatuvchi:

Uyuvlida o‘ttiz bek,
Eng kichigi Nodirbek.
Oyinni to‘p bo‘lmasin,
Uyuvli ko‘p bo‘lmasin. – kabi hikmatlar hozirgi kungacha xalq tilida qo‘llaniladi va suhbatlarda tez-tez takrorlanib turadi[2].

Yuqorida nomi keltirilgan *uyuvli (uyikli)* urug‘i boshqa bir manbada *o‘yuvli* tarzida uchraydi: «Kampirtepada azaldan yashab kelayotgan dahalar: *konchi, tuman oqto‘nli, avlodchagir va yelkasi do‘ng* bo‘lib, ular qo‘ng‘irot urug‘ining vaxtamg‘ali bo‘limiga mansub ***o‘yuvli*** urug‘idandir. XVIII asrning ikkinchi yarmlarida Kampirtepada *boyavlod, o‘tab va tuvma* urug‘lari vujudga kelgan»[3].

Aynan Kampirtepa toponimi tarixiga bag‘ishlangan yana bir manbada boshqa bir shakl uchraydi: «Konpurtepa qishlog‘ida qo‘ng‘irot qabilasining ***oyuvli (vo‘yuvli, uyuvli)*** urug‘iga mansub kishilar qadim davrlardan yashab keladi. Ularning ota-bobolari asl shu tuproqning haqiqiy egalaridir. Oyuvlilar qa-

[1] Qorayev S. Toponimika. – Toshkent, 2006. – B.147.
[2] Хўжамбердиев Ё. Сурхондарё вилояти кўҳитангтоғ ва тоғ олди микротопонимлари луғати. – Термиз, 2012. – B.87.
[3] Абдураҳмонов Ж (Жўра Ғулом). Сулола. – Термиз, 2024. – B.108.

dimda qo‘ng‘irot qabilasiga tegishli vaxtamg‘alilarning salmoqli urug‘laridan biri bo‘lgan. Birinchilardan bo‘lib Konpurtepaga *to‘man oqto‘nni (oq to‘nli), orqasido‘ng, kanichi, avlachagir, o‘tab* urug‘lari kelib joylashishadi»[1].

Yuqorida keltirilgan nomlar aynan bitta urug‘ga tegishli. Fikrimizni isbotlash uchun barcha manbalarda qo‘ng‘irotlarning vaxtamg‘ali urug‘i tarkibiga kirishi ta’kidlanganligini asos qilib ko‘rsatishimiz mumkin.

Uyuvli etnonimi – *yig‘ilgan, to‘plangan* ma’nolarini anglatadi. Asos vazifasini *uymoq* fe’li bajargan. Yangi yerlarga borib o‘zaro totuv, bir-birlari bilan yaqin jamoa bo‘lib yashaganligi uchun shunday nomlangan. Shu urug‘ga mansub bo‘lgan keksa avlod vakillarining fikrlarida ham shunday qarashlar bor. Ya’ni, bir rivoyatga ko‘ra, oyuvlilar orasida beklar yetishib chiqqan (bu haqda yuqoriroqda ham aytib o‘tgan edik). Ular xalq orasida obro‘li kishilar bo‘lgan. Ba’zan podsholik bilan oyuvlilar orasida ayrim kelishmovchiliklar bo‘lib turgan (oyuvli ayni o ‘sha paytdaa shunday nomlanmagan). Shunday kichik janjallardan biri jiddiy tus oladi. O‘sha vaziyatda podshoh Eron podsholigi bilan birlashib, xalqqa qarshi kurashadi. Orada kuchli jang bo‘ladi. Eron shohining ko‘p sonli qo‘shiniga qarshi kurasha olmagan xalq yengiladi. Podshoh urushga boshchilik qilgan oyuvlilarni qattiq jazolashni buyuradi. Xalq tog‘larga qochishga majbur bo‘ladi. Tog‘lrda o‘yilgan g‘orlarga yashirinadi. Shunday og‘ir vaziyatda ham ular bir tanu jon bo‘lib, birlashib harakat qilgan, uyishib yashagan. Keyin shunday nom olgan.

Oyuvli, o‘yuvli, vo‘yuvli shakllari *uyuvli* etnonimining variantdoshlari bo‘lib, barchasi bir urug‘ nomini ifodalaydi. Qipchoq lahjasiga xos dialektlarda mavjud bo‘lgan umumturkiy *«o» lashish* hodisasining ta’siri natijasida *uyuvli – oyuvli* shakliga o‘tgan. Mazkur hodisa turkiy tillarda mustaqil ravishda har bir tilda (lahjada) alohida-alohida ko‘rinishda shakllangan va rivojlangan bo‘lishi mumkin. Turkiy sheva va tillarda *«o»* ning bir xil emasligi, ehtimol shu bilan – *«o»* tovushining tillarda har bir til uchun o‘ziga xos qonuniyat asosida rivojlanganligi bilan izohlanishi mumkin.

*Oyuvli*dan *o‘yuvli* shakli vujudga kelgan bo‘lib, so‘nggi shakl – *vo‘yuvli*ga kelib qolgan. Vo‘yuvlidagi *v* va *o‘* tovushlari qipchoq dialektiga xos diftonglashuv hodisasi bo‘lib, Surxondaryoda yashaydigan qipchoqlar og‘zaki nutqda keng qo‘llaniladi. Misol ushun, *o‘t – vo‘t, o‘tin – vo‘tin, o‘rin – vo‘rin* va shu kabilar.

Tahlilga tortilgan *uyuvli* etnonimining barcha variantlari bir ma’no-mazmun ifodalashini ta’kidlagan holda, fonetik tafovvutlar mavjud ba’zi etnonimlar etimologiyasi turli xil bo‘lishi mumkinligini ham aytib o‘tmoqchimiz. Misol uchun ***g**o‘jax’or* va ***k**o‘chaxo‘r* variantlari ifodalaydigan mazmun bir-biriga aynan mos emas.

Go‘jaxo‘r urug‘i qo‘ng‘irotlarning qo‘shtamg‘ali bo‘limi tarkibiga kirib, Surxondaryoning ko‘plab hududlarida yashaydilar. Urug‘ nomi bo‘yicha turli qarashlar mavjud bo‘lib. Xalq etimologiyasiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, turlicha rivoyatlar bor.

Aytishlaricha, G‘uzorda qolgan Qilichbek (Gudraybiyning o‘g‘li Turonbiy, undan bir necha avlod keyin yashagan Berdibekning o‘g‘li)ning ukasi Po‘latbek *zombiri* urug‘idan uylanadi. Keyinchalik ularning avlodi *po‘loti* deb yuritiladi. Bu avlod hozirgi kunda G‘uzor tomonlarda yashaydilar. Shu avloddan bo ‘lgan bir yigit Oltinsoy tomonlardan Oqlo‘pon degan joydan bir tojik qizga uylanadi. O‘sha davrda Denov bekligi xalqi podsholikka (amirlikka) qarshi norozilik chiqishlari qiladi. Buning oqibatida mansabdorlar egallab turgan lavozimlaridan chetlatilad. Shu vaqtda Po‘latbek avlodidan bo‘lgan shu kishiga ham bozordan kichikroq bir mansab tegadi. Uning Mamatmurod degan o‘g‘li bo‘ladi. O‘g‘li yoshlik chog‘larida o‘zi vafot etadi. Ayoli taqdir taqozosi bilan Boysunga turmushga chiqadi. Boysunda yosh bolalar bilan o‘ynab yurgan Mamatmurodni atrofdagi boshqa bolalar «Sening otang yo‘q» deb izza qiladilar. Shunda bola onasiga kelib «Mening otam kim? Otamni topib bering» deb turib oladi. Onasi «Otangning qarindoshlarini topaman desang, Boysunning molbozoriga bor. O‘sha yerda uzun bo‘yli, qizil yuzli, soqollari siyrak, egniga qil chepkan kiygan, beliga ola chijing jip boylagan bobolar mol olib keladi. Ana o‘shalar otangning qarindoshlari bo‘ladi», deydi. Mamatmurod molbozorga borib o‘sha odamlarni topadi. Shu mol sotayotganlardan bir yoshi kattarog‘i o‘zlarigakelishib ketadigan, uzoq vaqt qarab turgan, bolakayni yoniga chaqirib, «Biror narsa kerakmi yoki qorning ochmi», deb so‘raydi va bir kosa go‘ja osh beradi. Bola oshni ishtaha bilan, tezlikda yeb qo‘yadi. Shu ketishda uch kosa go‘ja oshni ichadi, qarab turganlar «go‘jaxo‘rim» deb erkalatib, o‘zlari bilan olib ketadi. Shu Mamatmurodning avlodi *go‘jaxo‘r*lar deb yuritilgan[2].

Boshqa bir rivoyatda esa qo‘ng‘irotlarning ko‘chaxo‘r urug‘i qo‘ng‘irot qoraqalpoqlarga borib taqaladi. Orol bo‘yidagi hududlarda yashagan qoraqalpoqlar moddiy jihatdan ancha to‘kis bo‘lib, savdo-sotiq bilan shug‘ullanganlar. Ammo erkaklarining oshno, ulfati ko‘p bo‘lib, pulini ko‘chaga sovurib yurgan. Shu urug‘dan bo‘lgan Mamatboy isimli kishi G‘uzor taraflarga mol savdosi bilan kelib, shu yerda uylanadi. Urug‘idagi odamlarga mos ravishda pulini

[1] Ёқубов Ш. Конпуртепа тарихидан лавҳалар. – Тошкент, 2004. – В.14-18.
[2] Қобилов Э. Хомкон. – Тошкент, 2022. – Б.20-21.

ko‘chaga sovurib, ulfatbozlikni ko‘p qilgan. Shunda xotini va qarindoshlari uni ko‘chaxo‘r (fors-tojik tilidagi xurdan//xo‘rdan – yemoq fe’lining asosini tashkil qiluvchi *xo‘r* shakli bilan yasalgan degan qarash mavjud) deb atashgan. Shu kishining avlodi *ko‘chaxo‘rlar* deb nomlangan[1].

Ilmiy manbalarda esa mazkur urug‘ haqida shunday ma’lumotlar keltiriladi: Ko‘chaxo‘r – qo‘ng‘irotlarning qo‘shtamg‘ali guruhidagi urug‘ nomi. Ushbu urug‘ ham oyinlilar tarkibidagi *qovg‘a* urug‘i kabi kelib chiqishi mo‘g‘ullarga borib taqalishi ehtimoldan holi emas. Chunki «Mo‘g‘ullarning yashirin tarixi»da har ikki urug‘ nomi tilga olinadi[3]. Shoniyoz Safarovning yozib olgan ma’lumotiga ko‘ra, ko‘chaxo‘rlarning bosh bobosi Mamatkarim degan odam bo‘lgan. Uning o‘g‘li Mamatraimning Maydaqora (Qo‘rg‘ontosh, Sevalli va To‘lashda yashagan), Zarmas (Xomkonda yashagan), Qo‘shbegi, Qo‘xay va Oqman ismli beshta o‘g‘li bo‘lgan. Ko‘chaxo‘rlarning bosh piri Olimxon bo‘lib, u Samarqanddan kelgan. Olimxonning o‘g‘li Arslonxondir. Ko‘chaxo‘rlar Laylagandagi mo‘g‘ullar bilan pirdosh. Olimxon oq tuyada Samarqanddan kelib, yuqoridagilarni o‘ziga murid qilib olgan[2].

Bizning fikrimizcha, *ko‘chaxo‘r*lar genezisi jihatidan mo‘g‘ul qabilalari tarkibidagi urug‘ hisoblansa-da, o‘zbek qo‘ng‘irotlari tarkibiga singishgan. Biz fonetik jihatdan tahlil qilayotgan shakllar mo‘g‘ul til elementlaridan ko‘ra, ko‘proq, turkiy va forsiy til variantlariga yaqinroq. Yuqoridagi ma’lumotlarni tahlil qilar ekanmiz, *go‘jaxo‘r* shakli haqiqatga yaqinroq deb hisoblaymiz. Chunki go‘ja oshi ancha qadimgi taom bo‘lib, qo‘ng‘irotlarning doimiy tayyorlaydigan ovqati hisoblangan. Xususaan, Surxondaryoning qo ‘ng ‘irotlar yashaydigan ko ‘plab hududlarida bugungi kunda ham (odatda diniy-aqidaviy qarashlar bilan bog‘liq bo‘lgan marosimlarda, masalan, bibimushkul, bibi seshanbi kabilarda) mazkur taom tayyorlanadi. Ko‘chaxo‘r shaklida esa, ko‘cha leksemasi nisbatan yangi tushunchadek ko‘rinadi. qo‘ng‘irotlarning asosiy lahjasi qipchoq ekanligini inobatga oladigan bo‘lsak, qipchoqlarda ko‘cha leksemasi o‘rnida *dash(t), moydon (maydon)* variantlari ishlatilgan (masalan, *dashda o‘ynamoq, dashda sang ‘imoq, moydonga chopmoq, moydonni supurmoq* kabi). Aniq bo‘ladiki, *go‘jaxo‘r* varianti haqiqatga yaqin.

Qo‘ng‘irot urug‘lari orasida yana bir fonetik variantlilikka ega bo‘lgan etnonimlardan biri *qorabo‘yin – qoramo‘yin* shakllaridir. Mazkur etnonimning har ikki ko‘rinishda ham xalq orasida qo‘llaniladi. Shu urug‘ga mansub keksa avlod vakillarining ma’lumotlariga qaraganda, qoramo‘yinlar Sharqiy Buxoro taraflardan kelgan urug‘ hisoblanadi. Ular G‘uzor orqali Boysun hududlariga kelib o‘rnashgan. O‘zlarini qoramo‘yin urug‘iga mansub deb tanishtirgan kelgindilar shu hududda qolib, yerlik (Boysunlik) aholining qizlariga uylangan. Boysunning Dashtig‘oz, Pudina va Sarqamish (hozirgi shu qishloqlar hududiga ro‘g‘ri keladigan yerlar nazarda tutilmoqda) hududlarida yashab qolganlar. Asosan, qipchoqlar yashagan bu joylarda qoramo‘yin shakli qorabo‘yinga almashgan. Yangi kelgan urug‘ vakillarining bo‘yni qora yuzi bug‘doyrang bo‘lganligi sababli yerlik aholi ularni qorabo‘yin deb nomlagan. Hattoki, ular uzoq hududlardan yayov yurib kelganligi, tuproqli chang joylardan o‘tib, usti-boshi kir bo‘lib kelganligi uchun kirbo‘yinlar deb ham nomlaganlar. Bo‘ynlarining qoraligini ham kirlik bilan baholaganlar. Aslida bu nom qoramo‘yin bo‘lib, *mo‘y* – fors-tojikcha soch, tuk ma’nolarini bildiradigan so‘zga asoslanadi. Ba’zi ma’lumotlara esa aynan qorabo‘yin mazmuni mo‘y leksemasi bilan bog‘langan bo‘lib, shu sababli mazkur nomni olgan degan fikrlar ham mavjud.

Fonetik jihatdan farqli variantlarga ega bo‘lgan yana bir etnonim *qozoyoqli/ qoziyoqli/g‘ozoyoqli*dir. Mazkur etnonim bir qarashda zoomorf kodga asoslangan *g‘oz* semasi bilan bog‘liqdek. Misol uchun, T.Nafasov mazkur urug‘ haqida quyidagicha ma’lumot beradi: *qozoyoqli/qazayoqli, qazayog‘li* urug‘ining tamg‘asi shakli asosida nomlangan. Tamg‘a shakli g‘oz oyog‘i /panjasi tarzida bo‘lgan. Tamg‘asining shakli, tuzilishi, chizig‘i va xalqa – nuqtalari asosida ko‘pgina qabila, urug‘lar nom olgan. Bu guruh etnonimlar tarkibida *-li* qo‘shimchasi, *tamg‘ali* so‘zi mavjud: *bolg‘ali, qaychili, o‘roqli, qo‘shtamg‘ali, voxtamg‘ali* kabi. Hozirgi o‘zbek tilidagi *g‘oz* so‘zi qadimda *qoz, qaz* tarzida bo‘lgan. Tamg‘aning shakli *qoz/ qaz* oyog‘i /panjasi shaklida bo‘lganligi uchun *qozoyoqli, g‘ozoyoqli* shaklini olgan. Tamg‘a nomidan urug‘ nomi vujudga kelgan[3].

Lekin qarashlar turli xil. Tarixiy ma’lumotlarga ko‘ra, o‘ziga xos yurish shakliga ega bo‘lgan ya’ni, g‘ozga o‘xshab oyoqlarini ikki tomonga tashlab yuradigan kishidan tarqagan urug‘ga, yurish shakliga ko‘ra, shu nom berilgan. Ba’zi fikrlarga ko‘ra esa o‘ziga ishongan, davralarda ko‘krak kerib yuruvchi, gerdaygan, bahslarda faol bo‘lgan urug‘ vakillari shu nom bilan atalgan. Manbalarda yuqoridagi fikrimizni asoslovchi shunday ma’lumotlar bor: «Qozoyoqli bo‘g‘inining nomi (g‘oz oyoqli) so‘zidan olingan bo‘lib, boshqirdlarda «*puyir oyoq*» *(nojki gulxarya)* «*gusin-*

[1] Xalq etimologiyasi.

[2] Qarang: Умаров И. **Ўрта Осиёда туркий халқларининг этногенезиси (қўнғиротлар) 1-китоб.** Қарши: Насаф, 2003. – Б.18.

[3] Нафасов Т. Қашқадарё қишлоқномаси. – Тошкент: Муҳаррир, 2009. – Б.379.

ные lapki», qoraqalpoqlarda – *qozyak*, no‘g‘aylarda va qrim tatarlarida – *kazayak* deb yuritiladi[1].

Tarixchi S.Tursunovning fikricha, mazkur urug‘ning nomi *qozoyoqli* emas, *qoziyoqli* bo‘lib, *g‘oz* so‘ziga umuman aloqasi yo‘q. Olimning ma’lumotlariga ko‘ra, Sirdaryoda bir podsho bo‘lib, qozisi bilan yer-suv masalasida tortishib qoladi. Aholining ma’lum qismi qozini qo‘llab-quvvatlaydi. Podshoh qozini o‘ldirmoqchi bo‘lganda, qozi o‘z tarafdorlari bilan tunda podsholik hududidan chiqib ketadi. Hozirgi Surxondaryo hududlariga kelib joylashadi. Qozoyoqlilar qozini yoqlaganlar (tarafdorlar), u bilan kelgan kishilar avlodlaridir. Bizningcha, S.Tursunovning mulohazalari haqiqatga yaqinroq. Chunki, g‘ozga o‘xshab yurish qo‘ng‘irotlarning boshqa urug‘lariga ham xos (masalan, *jostoboni*).

Avaxli urug‘i qo‘ng‘irotlarning *tortuvli* tarmog‘i tarkibiga kiruvchi *oboxli* etnonimi hamda ba’zi olimlarning qo‘ng‘irotlar tasnifi berilgan ayrim jadvallarida, xususan, Karmishevaning tasnifida *vaxtamg‘ali* tarkibida ham mavjud deb hisoblangan *abaqli* urug‘i bilan fonetik jihatdan farqlanuvchi bir urug‘ deb hisoblaymiz. Ayrim ilmiy manbalarda ham bu shakllar bir urug‘ nomini ifodalashi ko‘rsatilgan: *avoqli* – o‘zbek xalqi tarkibidagi urug‘lardan biri. Qipchoqsaroylarning, Qashqadaryo bo‘yidagi *saroy* urug‘ining, Qashqadaryo va Surxondaryo *qo‘ng‘irot*larining tarkibida *avoqli/aboqli* urug‘i mavjud[2].

Mazkur urug‘ning asosi ayrim tarixchilarning fikricha, *«avax»* bo‘lib, *avax eli* so‘zining qisqartmasidir[3]. Hozirgi kunda Surxondaryo hududida yashovchi qo‘ng‘irotlar tarkibidagi eng faol va ko‘p sonlilardan hisoblanadi. Jarqo‘rg‘on, Qumqo‘rg‘on, Bandixon va Boysun tumanlarida yashovchi qo‘ng‘irotlarning asosiy qismini aynan shu urug‘dagilar tashkil etadi. Yuqoridagi hududlarda yshovchi keksa avlod vakillari o‘zlarini Chingizxon bilan bog‘laydilar. Tashqi ko‘rinish jihatidan ham mo‘g‘ullarga xos antropologik ko‘rinishga ega bo‘lgan *oboxli*lar (*oboqli, aboqli, avoqli, avoxli*)ning ayrimlari o‘zlarini *vaxtamg‘ali* tarkibidagi urug‘ deb hisoblasalar, ayrimlari *tortuvli*ning *oboxli*si deb biladilar.

Mazkur etnonim etimologiyasiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, tarixchilarning fikrlariga ko‘ra, *aboxli* urug‘ning kelib chiqish tarixi juda uzoq bo‘lib, qadimiylik bo‘yicha, hatto, xunnlardan ham o‘zib ketadi. Ular O‘rta Osiyo hududidan to Tinch okeanigacha bo‘lgan hududlarda, shuningdek, Shimoliy Amerikaning g‘arbiy qirg‘oqlarida ham yashashgan. Bunga dalil sifatida hozirgi AQShning g‘arbida yashovchi *navax* (aboxli urug‘i ba’zan avaxli deb ham ataladi) qabilasini keltirish mumkin[4].

Navax va boshqa qabilalarning Shimoliy Amerikaga qachon ko‘chib borishgani aniq emas. Tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, *navax*lar mansub bo‘lgan katta *na-dene* oilasi Shimoliy-Sharqiy Osiyodan ancha kechroq kuo‘chib kelgan qabilalarning avlodlaridir. E.Sepir ularning tilini tibet-xitoy tillari oilasi bilan aloqadorligi haqidagi fikrini ilgari suradi va ularning Amerikaning Osiyoga yaqin shimoliy-g‘arbiy hududlarida yashashlari ham tasodifiy emas deb hisoblaydi[5].

Ushbu urug‘ning tarixiyligini isbotlovchi yana bir asos ularning *saroy, qo‘ng‘irot* va *kenagas*lar tarkibida mavjudligidir. *Oboxli*arning qachondir yirik qabila bo‘lganligi hamda Chingizxon yurishlaridan so‘ng O‘rta Osiyo va boshqa o‘lkalarga ko‘chib kelib, turli ellarga tarqalib ketganligi shu urug‘ning keksa vakillari tomonidan aytilgan fikrni tasdiqlaydi.

Boshqa bir manbada esa, *avoqli/aboqli* – bir necha turky xalqlarga xos urug ‘. Qirg ‘iz, qoraqalpoq, qozoq, boshqird xalqlarining *avaqlы, abaqlы, abaxlы* urug‘i borligi ma’lum. *Avaq/oboq* – tamg‘a shaklining nomi. Tamg‘a qora uyning uvug‘iga o‘xshash, to‘g‘ri chiziqning boshi yonga qayrilgan shaki. Shunday boshi egik to‘g‘ri chiziq shaklidagi tamg‘a mollarga qo‘yilgan. Tamg‘aning shakli asosida urug‘ nomlangan[6].

Yuqorida keltirilgan har ikki ma’lumot ham to‘g‘ridek ko‘rinadi. Biz, tahlil qilib chiqqan ma’lumotlarimizga asoslanib, tamg‘a nomi bilan bog‘liq nom ekanligi haqidagi fikrni yoqlaymiz. Chunki etnonimlar lingvistik jihatdan o‘rganilgan ko‘plab manbalarda tarkibida *-li* qo‘shimchasi mavjud etnonimlar tamg‘a shakliga ko‘ra nomlangan deb ko‘rsatilgan[7]. K.Marqayev tamg‘a va maxsus belgilar asosida shakllangan 40 ga yaqin etnoslar haqida ma’lumot beradi. Bular: *uvoq, avoqli, barmoq, boltali, boymoqli, ishqili, tuyoqli, cho‘michli, qaychili, qayroqli, changoyoq, chavtik, o‘roqli* va boshqalar[8]. Tarkibiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, har birida *-li* qo ‘shimchasi mavjud. Oboxli etnonimi ham *avax/abox/obox+li* shaklidan tarkib topgan deb hisoblash mumkin. *Avoxli*ning *oboxli* shakliga o‘tishini qipchoq lahjasiga xos *«o»la-*

[1] Норбоев Н. 92 бовли ўзбек эли. Ўзбек элининг қабила ва уруғлари ҳақида. – Тошкент, 1997. – Б.21.
[2] Нафасов Т. Қашқадарё қишлоқномаси. – Тошкент: Муҳаррир, 2009. – Б.38.
[3] Умаров И. **Ўрта Осиёда туркий халқларининг этногенезиси (қўнғиротлар) 1-китоб.** – Қарши: Насаф, 2003. – Б.16.
[4] Народы Америки. Том I. – Москва, 1959. – С.30.
[5] Народы Америки. Ko‘rsatilgan tom, shu bet.
[6] Нафасов Т. Қашқадарё қишлоқномаси. – Тошкент: Муҳаррир, 2009. – Б.38.
[7] Нафасов Т. Қашқадарё қишлоқномаси. – Тошкент: Муҳаррир, 2009. – Б.379.
[8] Марқаев К. Ўзбек тили этнонимларининг лисоний тадқиқи: Филол.фан. номз. дис. – Тошкент, 2007. – Б.79.

nish hodisasi bilan bog‘lash mumkin (*anor-onor, arqon-orqon* kabi).

Xulosa qilib aytganda, qo‘ng‘irot urug‘i tarkibiga kiruvchi kichik shaxobchalarda fonetik-fonologik farqliliklar ancha ko‘p bo‘lib, ayrim etnonimlarda bir tovush (asosan, so‘z boshidagi) bilan, ba’zi o‘rinlarda ikki yoki uch tovush tafovuti bilan farqlanishi ko‘zga tashlanadi. Mazkur holatda etnonim etimologiyasini aniqlash anchayin mushkullik tug‘dirib, nomga asos bo‘lgan tushunchaning aslida qanday ekanligini anglashda chalkashliklarga olib keladi. O‘ylaymizki, til birliklarining aynan mana shunday, tadqiqi murakkab bo‘lgan, jihatlarini tahlil qilish tilshunosligimiz rivoji uchun manfaatli bo‘ladi.

Rezyume. Mazkur maqola onomastik tadqiqotlar doirasida yaratilgan bo‘lib, tahlillar qo‘ng‘irot urug‘i tarkibiga kiruvchi etnonimlar asosida olib borilgan. Bir qancha etnonimlar etimologiyasi o‘rganilib, fonetik-fonologik jihatdan farqlilari tahlil qilingan. Semantik jihatdan o‘zgarish mavjud yoki mavjud emasligi tarixiy manbalar va xalq etimologiyasi asosida yoritilgan.

Resume. This article was created within the framework of onomastic research, the analysis was carried out on the basis of ethnonyms that are part of the Carnatic seed. A number of ethnonym etymologies have been studied and phonetically-phonologically distinct ones analyzed. Semantically, the existence or non-existence of change has been covered on the basis of historical sources and folk etymology.

Резюме. Данная статья создана в рамках ономастических исследований, анализ которых проводился на основе этнонимов, входящих в состав рода колокольчик. Изучена этимология нескольких этнонимов, проанализированы фонетико-фонологически различные. Семантически вопрос о том, существует изменение или нет, освещается историческими источниками и народной этимологией.